

**Mirzabobur Azizov**

*O'zbekiston xalqaro islom*

*akademiyasi 1-bosqich magistranti*

*e-mail.:mboburazizov@gmail.com*

*Tel.:+998 90-005-92-05*

Abul Abbos Marokishiying tug'ilgan sanasiga doir manbalarda uning hijriy 639, 646, 647 va 649-yillarda ekani haqida turli sanalar berilsa-da,<sup>51</sup> bu sanalar ichida aniqrog'i 654-yilning 9-zulhijja oyida (1256-yil 28-dekabr) Mariniylar davlati hukmron bo'lgan yillarda Mag'rib diyorining Marokash shahrida dunyoga kelgan. Uning oilasi aslida Andalusianing G'irnota, hozirgi Ispanianing Granada shahridan ekani naql qilingan.<sup>52</sup> Olimning asl ismi sharifi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Usmon Al-Abul Abbos Marokishiy Al-Adadiy Al-Azdiy bo'lib, uning eng mashhur ismi Abul Abbos Marokishiydir. Uning otasi quruvchi usta bo'lgani sababli, u ibn Banno, o'zining matematika ilmidagi shon-shuhrati sababli Al-Adadiy va tug'ilgan joyiga nisbatan esa Marokishiy<sup>53</sup> deb atalgan.<sup>54</sup>

Abul Abbos Marokishiy Marokashning turli shaharlarida mashhur bo'lgan ustozlardan Qur'on ilmlari, arab tili va adabiyoti, aruz ilmi, hadis, fiqh, faroiz, tibbiyat, matematika va astronomiya kabi sohalardagi ilmlarni o'rGANIB, ayni vaqtida shu sohalarda bir qancha asarlarni yozgan.<sup>55</sup> Bundan tashqari, Abul Abbos Marokishiying Qur'oni karimning Nofe' qiroatiga tegishli har ikki tariqida (Varsh-Qolun) qiroat qila olgani ham rivoyat qilingan.<sup>56</sup> Uning hayotiga doir manbalarni taqdim qilgan Ibn Kunfuzga ko'ra u Marokash shahrida tasavvuf ilmiga oid bir qancha ilmlarni ham o'rgangan. U Fa's shahriga ko'chib kelib bu yerda matematika, astronomiya, nahv ilmlarini va Mirrix deb nomlangan hakimdan tibbiyat ilmini ham tahsil olgan. Abul Abbos Marokishiying matematika ilmida yetuk darajaga kelishida Fa'slik ustozlarining katta ta'siri borligi naql qilinadi.<sup>57</sup> Hayotining katta qismini o'zining ona yurti bo'lgan Marokashda o'tkazgan. Abul Abbos Marokishiy keyinchalik Fa's shahriga ko'chib kelib ilm tahsilini tamomlagan va yana takror Marokash shahriga qaytib kelib hayotining oxirigacha bu shaharda talabalarni yetishtirib chiqaradi va o'zining asarlarini ham ayni

<sup>51</sup> Ahmad Bobo Tinbuktiy, Naylul-ibtihaaj bi-tatrizid-diybaaj, 2-nashr, Tripoli, Dorul Kaatib nashriyoti, 2000-yil, 87-88-betlar. Ibnul Qoziy, Durratul-hajjaal fiy asmaair-rijaal, 16-bet.

<sup>52</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 6-bet. Abdulloh Kannun, An-Nubug'ul-mag'ribiyya fiy adabil-arabiyya, 2-nashr, 1-jild, 213-bet. Tinbuktiy, Naylul-ibtihaaj, 88-bet.

<sup>53</sup> Bu kalima ham Marokashiy ham Abul Abbos Marokishiy tarzida adabiyotlarda kelgan.

<sup>54</sup> Ahmad ibnul-Qoziy Al-Miknasiy, Jazvatul-iqtibaas fiy zikri man halla minal-a'lam bil-madinati Fa's, Riyoz, Dorul-Mansur nashriyoti, 1973-bet, 148-bet. Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 6-bet. Tinbuktiy, Naylul-ibtihaaj, 88-bet.

<sup>55</sup> Ibnul-Qoziy, Jazvatul-iqtibaas, 149-150-betlar. Tinbuktiy, Naylul-tbtihaj, 85-86-betlar.

<sup>56</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 6-bet.

<sup>57</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 6-bet. Ehson Fazlio'g'li, Abul Abbos Marokishiy, 530-bet. Jamol Bomiy, Abul Abbos Marokishiy, <http://www.Albanna.ma/article.aspx?C=5674 18 05 2019>.

shu joyda ta'lif qilgan.<sup>58</sup> Uning Marokashdan Fa'sga davomiy tarzda borib kelib Mariniy sultonlari bilan ko'rishgani, ularning Abul Abbas Marokishiyga katta hurmat-ehtirom ko'rsatganlari, uning sultonlar bilan mustahkam aloqada bo'lgani, hatto sultonlar tarafidan unga rasmiy vazifa berish taklif qilinganda, u buni rad qilgani ham naql qilingan.<sup>59</sup>

Abul Abbas Marokishiyning vafoti borasida ham turli sanalar naql qilingan, u hijriy 724, 726 yoki 721-yillarda vafot etgani aytiladi. Bu sanalar ichida 5-yoki 6-rajab 721-yil (31-iyul 1321-yil) shanba kuni shom vaqtida Marokashda vafot etgani haqidagi ma'lumot eng ishonchlisi hisoblanadi. So'ngra olimni Bobi Ag'mat qabristoniga dafn qilinadi.<sup>60</sup> Uning qabri ham xalq nazaridan chetda qolmaydi. Fa's aholisi uni tez-tez ziyorat qilib turadular. Hozirdsa u joyni «Sidi Buli Banna» deb atalishi uning katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lganini bildiradi.<sup>61</sup> Bundan tashqari uning tasavvufiy an'analarga sodiq qolgani, diniy hassosiyati ham yuksak darajada ekani manbalarga keladi.<sup>62</sup>

Olimning hayotdagi shiori: Eng avvalo ilm bilan axloq bir-birini to'ldiradigan va har bir musulmon kishida bo'lishi lozim bo'lgan ikki muhim xislatdir. Zero, islam dini axloqning asl manbasi bo'lgan Qur'onda va uning sharhi deya qabul qilingan sunnatda bu xususga juda ko'p marta urg'u beradi. Masalan, Alloh taolonning Payg'ambarimizga xitoban «*Shubhasiz, siz ulug' bir axloq uzrasiz*»<sup>63</sup> deyishi u zotning xulqlari qanchalik yuksak bo'lganini bildiradi. Shunday ekan u zotning ummatlari bo'lmish har bir o'zini Kitobi Mubinga vorislikni da'vo qiluvchi musulmon ham axloqiy jihatidan o'z payg'ambarlari izidan borishlari lozim. Boshqa tarafdan, odob-axloqi go'zal insonni omma tarafidan qabul qilinishi ham oson kechadi.

Abul Abbas Marokishiy kichikligidan boshlab Marokash va Fa's shaharlaridagi madrasalarda zamonasining muhim olimlaridan katta ishtiyoyq va hayajon bilan ilm tahsil qilgan va ustozlarining e'tiborini qozongan. Eng avval matematika va astronomiyani, keyinroq arab tili va adabiyot, qiroat, hadis, usul, faroiz, falsafa, mantiq va tasavvuf kabi turli ilmlarni o'rganadi. Keyinchalik olim matematika, astronomiya kabi sohalarda shuhrat qozonadi. Tez orada o'zining zakovati, ishtiyoqi, ilmlarni osonlik bilan o'rganib olishi bilan taniladi. Shuningdek, axloqiy jihatdan ham barchaga namuna sifatida ovoza bo'ladi.<sup>64</sup> Tabaqot nomli asarlarda Abul Abbas Marokishiyning ilmiy va axloqiy shaxsiyatiga doir ko'plab go'zal izohlar yozilgani aytiladi. Masalan, Ibn Rashid o'z asarlarida «*Men Mag'ribda ikki kishidan olimroq bo'lgan birovni ko'rmadim, bular*

<sup>58</sup> Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 6-bet.

<sup>59</sup> Ehson Fazlio'g'li, Abul Abbas Marokishiy, 530-bet.

<sup>60</sup> Ibnu-Qoziy, Jazvatul-iqtibaas, 152-bet. Tinbuktiy, Naylul-ibtihaj, 87-88-betlar. Abdulloh Kannun, An-Nubug'ul-mag'ribiyya fiy adabil-arabiyya, 2-nashr, 1-jild, 213-bet.

<sup>61</sup> Xalq orasida sayyid Abul Abbas Marokishiy ismi «sidi Buli Banna» deb qisqartirib atalgani aytiladi.

<sup>62</sup> Ehson Fazlio'g'li, Abul Abbas Marokishiy, 530-bet.

<sup>63</sup> Qalam surasi, 4-oyat.

<sup>64</sup> Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 6-bet.

*Abul Abbos Marokishiy va Ibnuš-Shaat As-Sabtalardir»<sup>65</sup> deb muallifning ilmiy saviyasiga baho bergan. Ayni vaqtida boshqa olimlar ham Abul Abbos Marokishiyning xalq tarafidan imom va rahbar sifatida qabul qilingani, uning sultonlarning oldida katta obro'si borligi va unga nisbatan katta ehtirom bilan munosabatda bo'lganini e'tirof qilganlar. Yana, uning shar'iy ilmlarda yetarli darajaga ega bo'lgani, qadim ilmlarda ham eng yuksak martabaga erishgani, ayniqsa ham diniy, ham dunyoviy sohalarda muhim shaxsga aylangani ham zikr qilinadi.<sup>66</sup>*

*Abul Abbos Marokishiyning hisob ilmida olg'a surgan g'oyalari talabalar va o'sha davrning olimlari tarafidan maqtovg'a sazovor bo'lgan. Alloma o'zining ushbu fikr va qarashlarini shakllantirish orqali boshqalarda uchramaydigan uslub tamoyillarni ham ishlab chiqqan.<sup>67</sup>*

Muallifning mazkur mavzulardagi asarlari turli tillarga tarjima qilingan, ularga yuzlab sharhlar yozilgan va darslik kitoblari tarzida o'qitilgan. Natijada Mag'rib o'lkasida Abul Abbos Marokishiy ilmiy maktabiga asos solingan. Hatto o'n oltinchi asrdan to bugungi kungacha yetib kelgan g'arbdagi hisob ilmiga doir manbalarning katta qismida mana shu olimning asarlaridagi sharhlardan ko'chirmalar borligi aniqlangan.<sup>68</sup>

*Abul Abbos Marokishiyning talabalaridan biri bo'lgan Abdurrahmon ibn Sulaymon Al-Lajoiy Fa's shahridagi Attoriyya madrasasida undan dars olganini yodga olib quyidagilarni bayon qiladi: «U viqorli, aqli quvvatli, tarbiyali, fazilatli, madaniyatli, ko'rinishi go'zal va oq tanli edi. U qimmatbaho liboslar kiyar va tansiq taomlarni tanovul qilar edi. U biror joydan o'tib qolsa hamma unga qarab talpinar, u ham ularga chiroyli muomala qilar va o'sha joydagilar bilan salomlashib ketar edi. U o'zida bor bo'lgan narsalarni atrofdagilar bilan bo'lishar va olim bo'lsin, omi bo'lsin hamma insonlar tarafidan yaxshi ko'rilar edi. U ilmiy masalalardan tashqari bo'sh vaqtlarida bekorchi va ma'nosiz so'zlarni aytmas, kerakli gaplarni aytardi. U bir majlisda hozir bo'lsa va gap boshlasa, hamma tinchlanar va uni tinglar edi. U kamdan-kam xato gapirib, faqat to'g'ri va haqni gapirardi»<sup>69</sup> deb o'z ustozi haqida fikrlarini bayon qilgan.*

Abul Abbos Marokishiyning butun bu sifatlari bilan birga yana uning tasavvufiy jihatdan ham mashhur ekani uni yanada hurmatli maqomga ko'targan. Ibn Kunfuzga ko'ra, Abul Abbos Marokishiyning so'fiylikka moyilligi uning Marokashdagi ustozlaridan Abu Abdulloh Al-Hazmiriy va uning ukasi Abu Zayd Abdurrahmon Al-Hazmuriylardan o'tgan.<sup>70</sup> Chunonchi, u Abdurrahmon Al-Hazmuriyning zikr halqasiga

<sup>65</sup> Shahobiddin Ahmad ibn Muhammad Al-Makkariy At-Tilimsoniy, Azhaarur-riyoz fiy azharil-iyoz, Matbaatu Fazola nashriyoti, 2-jild, 352-bet. Tinbuktiy, Naylul-ibtihaj, 84-bet.

<sup>66</sup> Ibnul-Qoziy, Jazvatul-iqtibaas, 148-bet. Tinbuktiy, Naylul-ibtihaj, 84-bet.

<sup>67</sup> Masalan, u hisob ilmini amaliy va nazariy jihatdan ikkiga ajratib matematikani asos qilgan holda uni nazariy ilmlardan deb hisoblagan, shu bilan birga u matematika ilmini amaliy jihatdan ham qayd qilgan. Yana uning son va kasrni, cheksizlik ma'nosini, zakot va meros mavzulari bilan birga bir necha muomalalarga doir o'rtaga qo'ygan nazariyalari ham mavjuddir. Qarang, Ehson Fazlio'g'li, Abul Abbos Marokishiy, 531-bet.

<sup>68</sup> Ehson Fazlio'g'li, Abul Abbos Marokishiy, 530-531-betlar.

<sup>69</sup> Ibnul-Qoziy, Jazvatul-iqtibaas, 148-bet. Tinbuktiy, Naylul-ibtihaj, 84-bet.

<sup>70</sup> Ehson Fazlio'g'li, Abul Abbos Marokishiy, 530-bet.

davomli ishtirok qilgan va u tarafidan tashkil qilingan «Hazmiriya»<sup>71</sup> tariqatiga a’zo ham bo’lgan. Hamda ustozidan ba’zi ma’naviy vazifalarni olgan. Abul Abbas Marokishiy bir yil davomida hilvatga kirib, keyin ustozidan «*Allah seni dunyo ilmlarida muvaffaq qilgani kabi samo ilmlarida ham muvaffaq qilsin*» degan duosini olgan. Shu tarzda, ustoz shogirdining ma’naviy jihatdan ham yuksak maqomga erishganini e’tirof etgan.<sup>72</sup>

---

<sup>71</sup> Ismini uni qurgan Hazmiriyya qabilasidan olgan tariqatning markazi Marokash atrofi dagi Ag’mat qasabasidir. Shu sababli, ular Ag’matiyya deb ham ataladi. Bu tariqatning silsilasi Madyaniyya tariqatining piri Mag’ribli so‘fiy Abu Madyan Al-Mag’ribiygacha yetib, 7-asrning o‘rtalarida Abu Abdullah Muhammad ibn Abu Zayd Abdurrahmon ibn Abdulkarim Al-Hazmiriy ismli ikki qardoshlarning qabila mansublari orasida olib borgan irshod faoliyati natijasida tasavvufiy bir harakatning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Keyinchalik Mag’ribning Fa’s, Ag’mat, Igil, Massa va Marokash kabi janubdagagi shaharlarga yoyilgan bu tariqat Abu Zaydning o‘limidan so‘ng 15-asrning o‘rtalarigacha davom etgan, keyinchalik u Madyaniyya va Shozaliyya tariqatlari kabi yoyilgan Afrika tariqatlarining ichida ularga qorishib ketgan.

<sup>72</sup> Ibnu'l-Qoziy, Jazvatul-iqtibaas, 148-bet. Tinbuktiy, Naylul-ibtihaaj, 84-bet.